



**ATROF MUHITGA ZARAR YETKAZMASDAN INTENSIV  
SABZAVOTCHILIKNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA  
ULARNING YECHIMLARI**

***Raxmatova Feruza Erkin qizi***

*Toshkent davlat agrar universiteti,*

*Meva-sabzavotchilik va uzumchilik fakulteti*

*Meva-sabzavotchilik va uzumchilik yo'nalishi*

*24-50-guruh talabasi*

*+998907559094*

[\*feruzaraxmatova51@gmail.com\*](mailto:feruzaraxmatova51@gmail.com)

***Jo'raqulova Zulayxo Sadullayevna***

*Toshkent davlat agrar universiteti,*

*Meva-sabzavotchilik va uzumchilik fakulteti*

*Ekologiya va atrof muhit muhofazasi yo'nalishi*

*24-76-guruh talabasi*

*+998935390508*

[\*zulaykhojurakulova699@gmail.com\*](mailto:zulaykhojurakulova699@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada intensiv sabzavotchilikni rivojlantirish jarayonida atrof-muhitga yetkazilayotgan salbiy ta'sirlar va ularni kamaytirish yo'llari muhokama qilinadi. Zamonaviy sabzavotchilik texnologiyalari yuqori hosildorlikni ta'minlagani bilan birga, ko'pincha ekologik muammolarni keltirib chiqaradi: tuproq degradatsiyasi, suv resurslarining ifloslanishi, pestitsid va kimyoviy o'g'itlarning haddan tashqari ishlatilishi shular jumlasidandir. Maqolada ushbu muammolarning sabab va oqibatlari tahlil qilinib, ekologik xavfsiz agrotexnikalar, organik sabzavotchilik, tomchilatib sug'orish, biologik himoya vositalaridan foydalanish kabi yechimlar yoritiladi.



**Kalit so‘zlar:** intensiv sabzavotchilik, ekologik muammolar, atrof-muhit muhofazasi, organik dehqonchilik, biologik himoya, barqaror qishloq xo‘jaligi, tuproq unumdorligi, ekologik texnologiyalar.

**Аннотация.** В статье рассматривается негативное воздействие на окружающую среду при развитии интенсивного овощеводства и пути его снижения. Современные технологии овощеводства, обеспечивая высокую урожайность, зачастую приводят к экологическим проблемам: деградации почв, загрязнению водных ресурсов, чрезмерному использованию пестицидов и химических удобрений и другим. В статье анализируются причины и последствия этих проблем, а также предлагаются решения, такие как экологически чистые агротехнологии, органическое овощеводство, капельное орошение и использование биологических средств защиты.

**Ключевые слова:** интенсивное овощеводство, экологические проблемы, охрана окружающей среды, органическое земледелие, биологическая защита, устойчивое сельское хозяйство, плодородие почв, экологические технологии.

**Abstract.** This article discusses the negative impacts on the environment in the process of developing intensive vegetable farming and ways to reduce them. Modern vegetable farming technologies, while ensuring high yields, often cause environmental problems: soil degradation, water resource pollution, excessive use of pesticides and chemical fertilizers, among others. The article analyzes the causes and consequences of these problems and highlights solutions such as environmentally friendly agricultural techniques, organic vegetable farming, drip irrigation, and the use of biological protection agents.

**Keywords:** intensive vegetable farming, environmental problems, environmental protection, organic farming, biological protection, sustainable agriculture, soil fertility, ecological technologies.



Bugungi kunda global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida intensiv sabzavotchilik tarmoqlari tobora kengaymoqda. Aholi sonining ortib borishi, turmush darajasining yaxshilanishi va sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi ushbu yo'nalishda yuqori hosildorlikka erishishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, intensiv sabzavotchilik faoliyatida ekologik muvozanatni saqlash, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ma'lumki, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan sohani bozor munosabatlariga o'tish jarayonida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor yo'nalishlar sifatida katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotganligi ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan dalolat beradi.

Xususan, so'nggi yillarda bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Bularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5388 va 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853 sonli farmonlari hamda 2018 yil 17 oktyabrdagi "Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3978, 2019 yil 14 martdagi "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239 qarorlarini keltirish mumkin.

Intensiv sabzavotchilik — bu yuqori hosil olishga qaratilgan, zamonaviy texnologiyalar va kimyoviy vositalar keng qo'llaniladigan dehqonchilik turi. Uning



afzalliklari bilan bir qatorda, atrof-muhitga salbiy ta'siri ham kuzatilmoqda. Asosiy ekologik muammolar quyidagilardan iborat:

1. Tuproq degradatsiyasi – tuproqning oziqlanish sifati va unumdorligining pasayishi, ortiqcha mexanik ishlov berish natijasida yuzaga keladi;

2. Suv resurslarining ifloslanishi – pestitsid va mineral o'g'itlarning yer osti suvlari bilan aralashuvi;

3. Biodiversitetning kamayishi – intensiv ekin almashinuvi yoki monokulturalar (bir xil ekinlar) yetishtirilishi mahalliy o'simlik va hayvonot dunyosining yo'qolishiga olib keladi;

4. Kimyoviy moddalarga qaramlik – doimiy ravishda kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlardan foydalanish natijasida zararkunandalar va kasalliklarga chidamli patogenlar paydo bo'ladi;

5. Iqlim o'zgarishlariga ta'sir – qishloq xo'jaligida noto'g'ri yondashuv issiqxona gazlarining ortishiga sabab bo'ladi.<sup>1</sup>

Atrof-muhitga zarar yetkazmasdan intensiv sabzavotchilikni yuritish uchun quyidagi samarali choralarni ko'rish lozim:

Kimyoviy vositalardan voz kechgan holda, tabiiy o'g'itlar (kompost, go'ng) va biologik himoya vositalaridan foydalanish ekologik muvozanatni ta'minlaydi. Organik sabzavotchilik ekinlar sifatini oshirish bilan birga, inson salomatligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv isrofgarchiligini kamaytirish va o'simliklarni optimal namlik bilan ta'minlash uchun tomchilatib sug'orish

---

<sup>1</sup> Курбанов А.Б. Роль Услуг В Аграрном Предпринимательстве // Экономика и социум. 2023. №4-1 (107). URL: 24.10.2023



texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu usul orqali suv iste'moli 30–50% gacha kamayadi.

Zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashishda biologik preparatlar, foydali mikroorganizmlar va entomofaglar (zararkunandalarni yeb yuboradigan hasharotlar)dan foydalanish ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi.

Yerlarning to'liq tiklanishiga imkon yaratish uchun ekin almashinuvi, oraliq ekinlar yetishtirish, tuproqni mulchalash, to'g'ri o'g'itlash rejaları ishlab chiqilishi kerak.

Issiqxonalar va ochiq maydonlarda quyosh energiyasidan foydalanish, chiqindilarning qayta ishlanishi, agrodron va sensorli monitoring tizimlari orqali nazorat o'rnatish sabzavotchilikni barqarorlashtiradi.

O'zbekistonda sabzavotchilik uchun tabiiy iqlim sharoitlari qulay bo'lib, ko'plab viloyatlarda yilning 2–3 mavsumida hosil olish imkoniyati mavjud. Ammo bu salohiyatni to'liq amalga oshirishda ekologik yondashuvni e'tiborga olish zarur. Mamlakatda organik dehqonchilikni rivojlantirish, fermerlar va dehqonlar uchun ekologik texnologiyalarni o'rgatuvchi seminar va treninglar tashkil etish orqali salbiy ta'sirlarni kamaytirish mumkin.

Shuningdek, ekologik mahsulotlar uchun ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgani sababli, bu yo'nalish iqtisodiy jihatdan ham manfaatli hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, intensiv sabzavotchilikni rivojlantirish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi uchun ilmiy asoslangan, ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo'llash zarur. Organik dehqonchilik, tomchilatib sug'orish, biologik himoya vositalari va agroinnovatsiyalar sabzavotchilikni samarali va barqaror qilishga xizmat qiladi. Shunday yondashuv orqali nafaqat iqtisodiy foyda, balki ekologik xavfsizlik, sog'lom jamiyat va kelajak avlod uchun muhofaza etilgan tabiiy muhit yaratiladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бузина Т.С. Оптимизация взаимодействия участников в региональных агропромышленных кластерах / Т.С. - Иркутск: Издательство Иркутский ГАУ, 2015.
2. ZS Shokhjaeva, AS Eshev, N O' Murodova, FS Temirova. Changes, problems and solutions in the water system in the connections of innovative economy. AIP Conference Proceedings. 2023/3/15. Стр. 050031.
3. Курбанов А.Б. Роль Услуг В Аграрном Предпринимательстве // Экономика и социум. 2023. №4-1 (107). URL: 24.10.2023).
4. Шодиев Б.Т. Теоретические Вопросы Стимулирования Предпринимательства В Аграрных Отраслях // Экономика и социум. 2023. №5-1